

QO'QON XONLIGI TARIXINING MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RGANILISHI.

QDU Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (tarix) 1-kurs magistranti Aliyeva Sevinchxon

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo'qon xonligi tarixining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan har tomonlama mustaqillik yillariga kelib tarixchi olimlar tomonidan o'rganilishi haqidagi ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi, tarixnavislik, tarix, mustaqillik, olimlar, tarixchilar.

Annotation: In this article, information is presented about the study of the history of the Kokand Khanate from social, economic, political, and cultural aspects by historians during the years of independence.

Key words: Kokand Khanate, historiography, history, independence, scholars, historians

Аннотация: В данной статье освещаются сведения об изучении истории Кокандского ханства в социальном, экономическом, политическом и культурном аспектах историками в годы независимости.

Ключевые слова: Кокандское ханство, историография, история, независимость, ученые, историки.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixni qayta tiklash va xalqimizning boy madaniy merosini haqqoniy yoritish yo'lida keng imkoniyatlar yaratildi. Shu jarayonda Qo'qon xonligi tarixi ham yangicha yondashuv asosida ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qilina boshlandi. Mustaqillikdan avvalgi davrda Qo'qon xonligi tarixi ko'pincha sovet mafkurasi ta'sirida, faqat bir tomonlama yondashuv asosida o'rganilgan edi. Biroq mustaqillik yillariga kelib tarixiy manbalarga xolisona yondashish, Qo'qon xonligi davrida yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni milliy manfaatlar asosida tahlil qilish imkoni tug'ildi.

Shuningdek ushbu davrda Qo'qon xonligi tarixini o'rganish uchun keng shart-sharoitlar yaratildi. Xonlik tarixiga oid ko'plab ilmiy ishlar, dissertatsiyalar, maqolalar yaratilib, kopgina ilmiy jumallarda va ilmiy-nazariy konferensiyalarda e'lon qilindi. H. Bobobekov, Sh. Vohidov, Y. Qosimov kabi tarixchilarning asarlari nashr etilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi. Ustoz tarixchilarning izidan borgan bir necha yosh tarixchilar esa Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha tadqiqod ishlarini olib bordilar. Tez orada bu yosh tadqiqodchilarning izlanishlari o'z natijasini berdi. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun 2004-yilda Z. A. Ilhomov "Aliquli amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'mi" mavzusida, 2006-yilda B. Ya. Tursunov "Qo'qon xonligida harbiy ish va qo'shin: holati, boshqaruvi, an'analari" mavzusida, Sh. Yu. Mahmudov 2007-yilda "Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi (1709-1876-y.y.)" mavzusida, Z. Sh. Madrahimov 2009-yilda "Qo'qon xonligida savdo munosabatlari" mavzusida, Sh. T. Qo'ldoshev 2009-yilda "Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy madaniy aloqalar (XVIII-XIX asrning birinchi yarmi) mavzusida dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qildilar[1.4-7.].

Mustaqillik yillarida xonlik davri tarixini o'rganishga qaratilgan dastlabki qimmatli asarlardan biri bu o'zbek tarixchi olimlaridan biri **H. N. Bobobekovning** 1990-yili chop etilgan **“Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки”**(**“Qo'qon xonligidagi xalq harakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy asoslari”**) asaridir. Bu ilmiy tadqiqot bo'lib, unda XIX asrda Qo'qon xonligida yuz bergan xalq qo'zg'olonlari, ularning sabablari, ijtimoiy va siyosiy omillari chuqur tahlil qilingan. Asarning asosiy mazmuni shundan iboratki, Muallif Qo'qon xonligida aholining turmushi, soliqlar, yer egaligi, dehqonlarning og'ir ahvoli va savdo munosabatlarini yoritadi. Shuningdek, xonlikdagi siyosiy beqarorlik, hokimlarning zulmi, markaziy hokimiyatning kuchayishi hamda mahalliy bekliklar o'rtasidagi nizolar tahlil qilinadi. Bobobekov o'z asarida turli xalq qo'zg'olonlarini (masalan, Po'latxon qo'zg'oloni, Andijon va Namangan viloyatlaridagi chiqishlar) tarixiy

manbalar asosida tahlil qiladi. Asarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, xalq harakatlarining yuzaga kelishiga xonlikdagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va siyosiy zulm asosiy sabab bo'lgan[2.45.]. Ushbu qo'zg'olonlarning xonlik siyosatiga, jamiyat tuzilishiga va Rossiya imperiyasi tomonidan xonlikning bosib olinishi jarayoniga ta'siri ko'rsatiladi. Muallifning xonlik tarixi bo'yicha yaratgan ikkinchi muhim asari 1996-yilda chop etilgan **“Qo'qon tarixi”** asaridir. Asarning muhim ahamiyati shundan iboratki, asar Qo'qon xonligi tarixini ilmiy asosda, manbalarga tayangan holda yoritgan eng to'liq tadqiqotlardan biridir. Asarda Qo'qon xonligining tashkil topishi (XVIII asr boshlarida Shohruhbiy davridan boshlab). xonlar o'rtasidagi hokimiyat kurashlari, markazlashuv jarayoni, Rossiya imperiyasi bilan munosabatlar. Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo, soliqlar tizimi va xalqning turmush darajasi. Xonlik madaniy hayoti, o'sha davrdagi ilm-fan, adabiyot, diniy muassasalar, madrasalar faoliyati haqidagi ma'lumotlar, Qo'qon xonligining qulash sabablari: ichki nizolar, siyosiy zaiflik va tashqi bosim (xususan, Rossiya istilosi) omillari tahlil qilinadi. 2006-yilda ushbu asarning rus tilidagi nusxasi ya'ni **“История Коканда”** nashr qilindi. Bundan tashqari, ilmiy anjumanlar hamda vaqtli matbuotda olimning xonlik tarixi va uni o'rganishning dolzarb muammolari haqidagi maqolalarini ko'plab uchratish mumkin.

Qo'qon xonligi tarixiga oid muhim asarlardan biri 1994-yili Namanganda nashr etilgan. Bu asar tarix fanlari nomzodi, dotsent **Y. Qosimov** qalamiga mansub bo'lib, **“Qo'qon xonligi tarixi ocherklari”** deb nomlanadi. Asarning e'tiborli tomoni shundan iboratki, asar Qo'qon xonligi tarixini kompleks tarzda yoritgan birinchi ilmiy ishlardan biridir. Asar ikki bobdan tashkil topgan.: birinchi bobda xonlikning aholisi, hududi, davlat tuzilishi, yer-suv munosabatlari, hunarmandchilik, savdo, shaharlar, qo'shin tuzilishi, xonlikning qo'shni Buxoro, Rossiya davlatlari bilan bo'lgan munosabatlari, madaniy hayot haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu bobda keltirilishicha, Qo'qon xonligi XVIII asrda Farg'ona vodiysida siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakillandi[3.12.]. Ikkinchi bobda esa xalq harakatlari,

xususan, Po'latxon qo'zg'oloni, Qo'qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkiston general-gubematorligining tashkil etilishi bayon qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Qo'qon xonligi tarixi yangi yondashuvlar asosida, milliy manfaat va tarixiy haqiqat nuqtayi nazaridan qayta tadqiq etildi. Avvalgi davrda siyosiy sabablarga ko'ra bir yoqlama yoritilgan masalalar endilikda manbashunoslik asosida, xolis tahlil qilinmoqda. Tarixchi olimlar Y. Qosimov, T. Bobobekov, H. Ziyoev, A. Muhammadjonov va boshqalar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida Qo'qon xonligining siyosiy tuzumi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy taraqqiyoti hamda xalq harakatlari ilmiy asosda yoritildi. Bugungi tadqiqotlar xonlik tarixini faqat siyosiy voqealar majmui sifatida emas, balki o'z davrining ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarini aks ettiruvchi murakkab tarixiy tizim sifatida o'rganishga yo'naltirilgan. Shu tariqa, Qo'qon xonligi tarixi o'zbek xalqining milliy davlatchilik an'analari va tarixiy o'zlikni anglash jarayonida muhim o'rin egallab, tarixshunosligimizda yangi bosqichni boshlab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kuzikulov. I Qo'qon xonligi tarixi. Namangan, "Namangan", 2014. . — B.4-7.
2. Бобобеков. Н "Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки". Ташкент, Фан, 1986. — Б. 45.
3. Qosimov Y. Qo'qon xonligi tarixi ocherklari. Toshkent, Fan, 1991. — B.12.
4. Bobobekov. H "Qo'qon tarixi". Toshkent, "Fan", 1996. — B.50-55
5. www.tarix.sinaps.uz
6. www.ziyonet.uz